

**Guliston davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya”
kafedrasini, Pedagogika fanlari
nomzodi, dosent, Abdulkarimov
Xabibullo XXX taqrizi ostida**

**Toshtemirov Doniyor Eshboyevich
GulDU, Pedagogika kafedrasini mudiri, dotsent
+998994733074
Sultonova Gulnora Muhammadmurod qizi
GulDU talabasi
+998993670724**

AMIR TEMUR O‘GITLARIDA KOMIL INSON TARBIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning faoliyati, ma’naviy me’rosi shuningdek komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlari borasida ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Adolat, ta’lim jarayoni, tarbiya, ma’naviy meros, insonparvarlik, el-yurt osoyishtaligi, komil inson, “Temur tuzuklar”.

СОВЕРШЕННОЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ШКОЛАХ АМИРА ТЕМУРА

Аннотация: В данной статье представлена информация о творчестве Мастера Амира Темура, его духовном наследии, а также его взглядах на воспитание совершенного человека.

Ключевые слова: Справедливость, образовательный процесс, воспитание, духовное наследие, гуманизм, мир страны, совершенный человек, «Правила Темура».

PERFECT HUMAN EDUCATION IN AMIR TEMUR'S SCHOOLS

Annotation: This article provides information about the work of Master Amir Temur, his spiritual heritage, as well as his views on the education of a perfect human being.

Key words: Justice, educational process, upbringing, spiritual heritage, humanitarianism, peace of the country, perfect person, "Temur's rules".

Amir Temur - buyuk davlat arbobi, kuragi yer ko‘rmagan sarkarda, qonunshunos, notiq, iste’dotli me’mor va adolat ustiga barpo etilgan davlat asoschisidir. El-yurt tinchligi uchun umrini tikkan va uni jahonga mashhur qilgan bu buyuk insoning jang-u jadal va tahlikaga to‘lib-toshgan hayoti va faoliyatni kichik bir maqolda yoritish juda qiyin holatdir.

Sohibqiron Amir Temur 7 yoshidan boshlab ilm olishni boshlaydi. Yosh bo‘lishiga qaramay uning ilmga muhabbati va o‘tkir zehni ta’lim jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. U yosh bolalilik paytidan boshlab o‘zining dovyuak, mard, jasurligi bilan odamlar e’tiboriga tushadi. Jang san’atini mukammal egallaydi. Quroni Karimni yod oladi, hadis ilmini o‘rgandi. O‘rgangan bilimlari ostida halol, pok, aql-zakovatli, e’tiqodi mustahkam, adolatlatli inson bo‘lib ulg‘ayadi. Amir Temur yovuzlikni, johillikni, zo‘ravonlikni hushlamas, adolat va insonparvarlikni ulug‘lar edi. Uning tarix zarvaraqalariga oltin harflar bilan bitgan “Kuch adolatdadir” degan hikmatli gapi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, uning jahonga mashhur nodir asari bo‘lmish “Temur tuzuklari” kitobida ham bu g‘oyalar ilgari surilgan. Asarda nafaqat jang san’ati, mamlakatni qanday boshqarish yoriqnomasi balkim odob-axloq me’yorlari, yoshlarni ma’naviyatga boshlovchi g‘oyalar keng yoritilib berilgan. Taniqli olim Bo‘riboy Ahmedov "Temur tuzuklari" podshohlarning turish-turmush va odob-axloq normalarini belgilab beruvchi risoladir, deb tariflaydi. [1]

Amir Temur ulug' davlat arbobi bo'lish bilan birga zamonasining komilu fozil, benazir dahosi, yaratganning nazari tushgan mislsiz qobiliyat va iste'dod egasi, ilm-fan va madaniyatning noyob sohibi edi.

Buyuk bobokalonimiz yoshlik kezaridan boshlab sharq tarixi va falsafasiga, adabiyot va san'atga, islom dini va uning odob-axloqqa oid muqaddas ta'limotiga iymon e'tiqod bilan qaragan. U xandasa, falaqiyot, mantiq, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix, axloqshunoslik, jug'rofiya, tibbiyot, adabiyot va san'at ilmlarini teran o'zlashtirgan. Zamonasining rasmiy uch tili, — turkcha, forsha va arabchani chuqur va mukammal bilgan. Temurning shijoatli ruhida ilm va ilm axdiga hurmatu e'zozni favqulodda kuchli bo'lgan. "Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aqlu idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Imon-e'tiqodli, halolpok inson bo'lib yetishdi"

Amir Temur naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Baxouddin va u yaratgan ta'limotga ixlos-e'tiqodi nihoyatda kuchli bo'lgan.

Amir Temur Xoja Shamsuddin Kulol, Sayyid Amir Kulol, Mavlono Zaynuddin Abu Bakr Toybodiy, Mir Sayyid Baraka singari ulug' diniy allomalarni o'ziga pir deb bilgan, ularning ma'naviy-ruhiy madadlaridan, ta'limotlaridan doimo mislsiz kuch-quvvat olgan, buyuk davlat tizimini yaratish va mustahkamlashda foydalangan.

Ilmiy manbalarda yozilishicha, Amir Temur mudom, saltanatda erishgan jamiki narsam va mustahkam makonlarni fath qilishim — bular hammasi Shayx Shamsuddin alFaxuriyning duosi, Shayx Zaynuddin al-Havofiyning hikmati tufayli va barcha topgan barakalarim esa faqat Sayyid Baraka yordamida, bo'lgan, der ekan.

Amir Temur islom rahnamolari — sayyidlar, shayxlar, xo'jalarga samimiyat bilan munosabatda bo'lgan. Buyuk jahongirning islom diniga munosabati va tasavvuf ahliga e'tiqodi uning «Tuzuklar» va unga nisbat berilgan «Tarjimai hol» deb nomlangan asarlarida, Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" kitoblari va boshqa ilmiy manbalarda o'z ifodasini topgan.

«Yana tajribamda ko'rib bildimki,-deydi Amir Temur davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharkim, uni ko'rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigito'sig'i yo'q uyga o'xshaydi. Shuning uchun men o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim... O'z saltanatimni shariat bilan bezadim».[2]

Amir Temur sayyidlarga mehribonlik qilib, ularni o'ziga yaqin tutgan. Ulamo va fozillarga izzat-ikrom ko'rsatib, ularni boshqalardan ustun va ulug', deb bilgan. Diniy arboblari, ulamo va shayxlar bilan mazmunli bahslar yuritgan, martabalarini har doim oshirib, sovg'a-salomlar in'om etib turgan. «Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim. Turli mamlakatlardagi sadrlar va qozilarga shariatning asosiy talablari qanday bajarilayotganligi xususida menga xabar qilib turishni buyurdim. Shunga o'xshash har el va har shaharda sipoh va raiyat orasida urf-odatlariga oid janjallashishlar haqida menga ma'lumot berib tursin, deb adolat amrini tayinladim. Shu tariqa dinni rivojlantirib, shariatni musulmon mamlakatlariga yoydim»

Mustaqil Turkiston davlati ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishda Amir Temur Qur'on va Hadis talablariga qat'iy amal qilgan, ularga zid ish qilishga zinhor yo'l bermagan. U islom dinini, shariat qonun-qoidalarini xurofot, bid'at, mutaassiblik, johillik, razolat, shakkoklik, diyonatsizlik kabi illatlardan astoydil turib himoya qilgan.

Amir Temur barkamol insonning axloqiy kamoloti haqida o'ylar edi. Komil inson uning nazarida Qur'oni Karim va Hadisi sharif ta'limotlariga sodiq bo'lmog'i lozim. U o'z

farzandlarini va nabiralari ana shunday ruhda tarbiyalashga harakat qilgan. Uning fikricha, komil inson-hokimiyatni boshqaradigan, imon-e'tiqodli, adolatli, g'ayratli, el-yurt g'amini o'ylab, ularning mushkullarini hal qiladigan shaxsdir. A.Temur komil inson «Millatining dardlariga darmon» bo'ladigan, ziyolilarni himoya qiladigan, kambag'allarni boylar zulmiga tashlab qo'ymaydigan bo'lishni ta'kidlar edi. Sohibqiron yoshlarni adolat va ozodlik uchun kurashga da'vat etadi. «Uzoq saltanat surmoq istasangiz qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz», -der edi u. Amir Temur komil inson axloqining asolarini islom diniga sadoqatli bo'lishdan iborat deb tushungan. Sohibqironning o'zi butun umri bo'yicha islom diniga, sayyidlariga sadoqatda bo'lgan. Bunda u o'z odami Muhammad Tarag'ay Bahodirning «Eng avvalo tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga xizmat etishdan chekinma. O'z sa'y-harakating bilan islomni qo'llab-quvvatla», degan o'git-nasixatiga amal qiladi.

«Qaysi mamlakatlarni zabt etgan yoki qo'shib olgan bo'lsam, o'sha erning obro'-e'tiborli kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuqarolari va mashoyihlariga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim. Ularga rahbarlik lavozimlarini berdim, yaxshi maoshlar belgiladim».

Amir Temurning bu so'zidan uning adolatli amir ekanligiga ishonsa bo'ladi. Darhaqiqat, Amir Temur qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsa «O'sha viloyatning ulug'lari og'a-inilarimdek, yoshlarini va bolalarini bo'lsa o'z farzandlarimdek deb ko'rdim» deb ta'kidlagan. [3]

Komil insonning so'zi va ishi bir bo'lishi lozim. Bu haqda Amir Temur «Belda kamar va tilda sano, ya'ni ish va so'z bir bo'lsin» deyishni xush ko'rar edi. Uning o'zi esa shaxsiy hayotida so'z va ishning bir bo'lishiga alohida e'tibor bergan.

Komil inson axloqining yana bir qirradi do'stlik, do'stlikka sodiqlikdir. Amir Temur do'stlikni qadrlagan, do'stga sodiq bo'lgan. U o'zining diniy piri, do'sti imom Baraka vafot etganda yig'lab ko'z yoshi qilgan.

U «Kuch – adolatdadir!» shioriga qat'iy amal qilib, saltanat hududini kengaytirib, qo'l ostida butun Turonni, Eron, Iroq, Ozarbayjon, Gurjiston, Hindiston, xullas, 27 davlatni birlashtirib, uni 35 yil davomida muvaffaqiyatli boshqardi. Bu davr Vatanimizning o'sha zamondagi poytaxti Samarqandda, bobomiz tavallud topgan yurt Shahrisabzda, butun Movaraunnahrda turmush tarzi yaxshilandi. Bunday muvaffaqiyatlarga erishish sabablarini Amir Temur o'z «Tuzuklar» ida shunday sharhlaydi: «... Tajribada ko'rilganim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, qat'iy, tadbirkor, hushyor bir kishi ming – minglab tadbirsiz loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishini yo'lga soladi. Men yana tajribamda ko'rdimki, g'anish lashkarini engish qo'shinning ko'pligi bilan emas, mag'lub bo'lish esa, sipohi (otliq lashkarlar) ning kamligidan bo'lmaydi. Balki, g'olib bo'lmoqlik Tangrining madadi va bandasining ta'biri bilandir...».

Amir Temur shirin so'zlilikni xush ko'rgan, g'azabni, kahrli muomalani yoqtirmagan. Boshqalarga bir kalima shirinso'z «qilichni qiniga tiqar», «til qilichdan o'tkir» deb ta'kidlashni xush ko'rgan va o'zi ham shunga amal qilgan. Shunday qilib, Amir Temur komil insonning axloqi haqida juda boy meros qoldirgan. Sohibqironning bu ta'limoti bo'lajak temuriy shaxzodalarning davlatni boshqarishga tayyorlashda dastur bo'lib xizmat qilgan.

Amir Temur bola tarbiyasi, ota-ano va farzand burchi haqidagi hadisni yaxshi bilgan. U haqidagi «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar»,

“Oida nafaqasidagi tejamkorlik tejamkorlikning yarmiga teng”, “Sizlarning yaxshilaringiz o‘z ahlu ayoliga (ya‘ni oila a‘zolariga) xushmuomala bo‘ladiganliringizdir”, “Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkalasini yoki bir bo‘lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo‘lib olmagan farzand xor bo‘lsin, xor bo‘lsin va yana xor bo‘lsin”, “Otaga itoat qilish-tangriga itoat qilishdir”, “Ota-onasi qarg‘aganni tangri qarg‘aydi” degan ibratli o‘g‘itlarni har doim yodda tutgan. [4]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Amir Temuming ibratli, hayotiy pand-nasixatlari va o‘g‘itlarining har biri ma’no-mazmun kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta’siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va ularni bitmas-tuganmas xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz. Bu o‘g‘itlar sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish, goh muvaffaqiyatli, goh muvaffiqiyatsiz, goh quvonchli, goh anduhli umrining ijodiy mevasi hamda xalqni bir maqsad yo‘lida birlashtirgan, jipslashtirgan sehrli va tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan durdona merosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Temur tuzuklari” [forschadan Alixonto‘ra Sog‘uniy va Habibulla Karomatov tarj imasi], 1991, 1996; [1-34 b, 2-78 b]
2. “Temur tuzuklari” ni O‘zbekistonda o‘rganish muommolari [Temuriylar davri madaniy yodgorliklari], 2003 ; [3-48, 4-124]
3. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” “Davlat ilmiy nashiryoti” Toshkent 2011.